

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |
ISSUE 1**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги СЕУ университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси
мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
5. Джураева Нигора Авазовна СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
6. Yusupova Dildora Dilshatovna YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
8. Xojiev Tunis Nurkosimovich YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
10. Bultakov Begzod Abdurasulovich INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86


ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**

Akmal Jumanazarov,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD
Noibaxon Mamadalieva,
filologiya fanlari doktori, professor

AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126774>

ANNOTATSIYA

Maqolada buyuk davlat arbobi, sarkarda va siyosatchi Amir Temurning hayoti va faoliyatining o'rganilishi, uning jangovar san'ati haqida so'z yuritilgan. "Temur Qonunlari" asariga asoslanib, davlat boshqaruvi va harbiy san'atda o'lchovlar tizimini qo'llash tahlil qilinagan, tashkilot va boshqaruvdagi o'lchovlarning ahamiyatini tasdiqlovchi aniq ilmiy xulosalar keltirilgan. Bu Amir Temur davrida o'lchov usullarini qo'llashdagi mahoratni ko'rsatadi va o'lchovlar va normativlarning har qanday tarixiy davrda dolzarbligini ta'kidlaydi. Shuningdek, "Temur Qonunlari"da keltirilgan harbiy san'at va jangovar taktika usullarining tashkil etilishi tarixiga, ularning milliy davlatlilikni shakllantirishdagi ahamiyatiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, tuzuklar, diplomatiya, jang maydoni, harbiy san'at, metrologiya, o'lchashlar, meyorlar.

Akmal Zhumanazarov,
Doctor of Philosophy in Technical Sciences PhD
Noibakhon Mamadalieva,
Doctor of Philological Sciences, Professor

THE USE OF MEASUREMENTS IN THE MILITARY ART OF AMIR TEMUR**ANNOTATION**

The article examines the life and activities of the great statesman, military leader and politician Amir Timur, as well as his military art. It analyzes the use of measurement systems in state administration and military strategy based on his work «The Code of Timur» presenting specific scientific conclusions that confirm the role of measurements in organization and management. This demonstrates the mastery of measurement methods during the era of Amir Timur and emphasizes the relevance of measurements and norms across all historical periods. The article also explores the history of the organization of military art methods and battle tactics outlined in «The Code of Timur» and their significance for the formation of national statehood.

Keywords: Amir Temur, regulations, diplomacy, battlefield, military art, metrology, measurements, norms.

Акмал Жуманазаров,
Доктор философии по техническим наукам PhD
Найбахон Мамадалиева,
доктор филологических наук, профессор

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИЗМЕРЕНИЙ В ВОЕННОМ ИСКУССТВЕ АМИРА ТЕМУРА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается жизнь и деятельность великого государственного деятеля, полководца и политика Амира Темура, а также его военное искусство. Анализируется использование системы измерений в государственном управлении и военном искусстве на основе его труда «Уложения Темура», приводятся конкретные научные выводы, подтверждающие роль измерений в организации и управлении. Это демонстрирует мастерство применения методов измерения в эпоху Амира Темура и подчеркивает актуальность измерений и норм во все исторические эпохи. Также рассматривается история организации методов военного искусства и тактики боя, изложенных в «Уложениях Темура», и их значимость для формирования национальной государственности.

Ключевые слова: Амир Темура, уложения, дипломатия, поле битвы, военное искусство, метрология, измерения, нормы.

O‘z davrining buyuk davlat arbobi, sarkardasi va siyosatchisi, butun Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz va boshqa hududlarni o‘z ichiga olgan katta imperiyani tashkil etib, uni samarali boshqargan Amir Temurning boshqaruv va harbiy san’ati tarixda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, Amir Temur shaxsini anglash – bu tarixni chuqur tushunish va uning mohiyatini o‘rganish demakdir. Unga boqish orqali biz o‘zligimizni, ma’naviy va madaniy merosimizni qayta kashf etamiz. Amir Temurni ulug‘lash esa xalqimizning tarixiy qudratiga va madaniyatiga asoslangan holda buyuk kelajakka bo‘lgan ishonchimiz va umidlarimizni mustahkamlash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Qashqadaryoning Ko‘kdala tumaniga tashrifida o‘tkazilgan faollar bilan uchrashuvda Amir Temur mudofaa merosi haqida gapirdi. “Ozroq vaqtim bo‘lsa kitob o‘qiyman. Sohibqiron Amir Temurning To‘xtamishxonning jangi haqida o‘qib chiqdim. Amir Temur bu jangda yettita usulni qo‘llagan ekan. Jasorati, o‘z askarlarini mardonavor tarbiyalashi bilan birga, janglarni ham o‘zi boshqargan. O‘zim uchun ham bu yangilik bo‘ldi. Keyin kimdir shu jang usulini o‘rgangani bilan qiziqib ko‘rdim. Hech kim o‘rganmagan ekan. Eng avvalo bobolarimizning usullarini o‘rganishimiz kerak», — dedi Prezident va sohibqironning jangovar merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha topshiriq berganini aytdi [1].

Uning shaxsiyati haqida so‘z ketganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya sohasidagi dunyoqarashi, harbiy strategiyasi va bunyodkorlik qobiliyati, shuningdek, ilm-fan, san’at va me‘morchilikka bo‘lgan e‘tiborini ta’kidlash joizdir. Shu bilan birga, uning insonparvarlik g‘oyalari, adolatli boshqaruv tamoyillari, kengash va maslahat asosida davlatni boshqarish borasidagi tajribasi, hamda xalq manfaatini ustuvor qo‘yish borasidagi ibratli fazilatlarini o‘ta muhimdir.

Darhaqiqat, Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi qarori [2], 1995 yil 26 dekabrda esa Birinchi Prezidentimizning «1996 yilni Amir Temur yili deb e‘lon qilish to‘g‘risida»gi farmonlari qabul qilindi [3]. 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida [4], «Amir Temur» ordenini ta‘sis etish to‘g‘risidagi farmonlar [5] chiqdi. YuNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996 yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta‘lim ravnaqi» mavzuida ilmiy konferensiya o‘tkazilib, buyuk davlat arbobining tarixdagi o‘rniga yuksak baho berildi. «Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatilishi va iqtisodiy

aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, me'morlar va shoirlarning buyuk homiysi yanglig' dong chiqargan» [6, 4-b.].

Amir Temurning «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. Albatta, ushbu davrda yaratilgan adabiyotlar juda ko'p [7, 119-144-b.]. «Tuzuklar»ni haqiqiy ilmiy jihatdan o'rganish, uni turli tillarga tarjima qilish, sharhlash, asarning turli nusxalarini nashr etish, «Tuzuklar»ning tarixiy manba sifatidagi qiymatini isbotlab berish uchun faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina to'la sharoit yaratildi. Bu borada tarixchi olimlarimizdan, ayniqsa, akademik B.A.Ahmedov [8] va N.A.Ahmedov [9], shuningdek, huquqshunoslardan H.B.Boboev [10, 71-124-b.], A.X.Saidov, J.T.Toshqulov [11] va boshqalarning yaratgan asarlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu mualliflarning ishlarida «Tuzuklar», uning vujudga kelishi, «Tuzuklar»dagi davlat va huquq masalalari ochib berilgan. Ularning tadqiqotlari mahsuli o'laroq olingan natijalar darslik va o'quv qo'llanmalariga kiritilgan.

Buyuk sarkarda faoliyatini, ijodiy merosini tadqiq etgan asarlarni o'rganar ekanmiz, tahlillar natijalari Amir Temurning me'yor, o'lchash, hisob-kitoblarga munosabati va bu masalalarga jang jarayonlarida e'tibor qaratishi masalasi tadqiqot ob'ekti bo'lgani guvohi bo'lindi.

Amir Temurning harbiy san'atining asosiy jihatlari sifatida esa quyidagilarni qayd etish mumkin [12]:

- taktik yondoshuv: Amir Temur janglarda taktik yondoshuvga katta e'tibor bergan. U dushman qo'shinlarini aldash, ularni qo'rqitish va bo'linishi uchun turli usullardan foydalangan;
- harbiy ierarxiya va intizom: Amir Temur o'z qo'shinlarida qat'iy intizom o'rnatgan. Uning harbiy san'atida har bir shaxsning vazifasi va joyi aniq belgilab qo'yilgan;
- farqli urush usullari: Temur qo'shinlari yengil otlig' qo'shinlardan, og'ir qurollangan askarlardan, muhandislik guruhlaridan va qoroldan iborat bo'lgan. Bu jangdagi faoliyatni tez va samarali tashkil qilishga yordam bergan;
- qo'shinlarning joylashuvi: Jangda qo'shinlarning joylashuvi va harakatini rejalashtirishda Temurning iste'dodi alohida ko'zga tashlanadi. Uning rejaları dushmanning harakatlarini oldindan ko'ra bilishga asoslangan;
- qurol-yarog'dan foydalanish: Amir Temur o'z zamonasidagi eng ilg'or qurol-yarog' va muhandislik texnologiyalaridan foydalangan. Bu dushman ustidan g'alaba qozonishda muhim ahamiyat kasb etgan.

«Temur tuzuklari» da Amir Temurning harbiy san'ati va jang taktikalariga alohida o'rin berilgan. Jang maydonini belgilash va uning tashkil etilishi, jangda g'alabaga erishishning muhim omillaridan biri hisoblangan. Bu jarayonda quyidagi asosiy jihatlarga ahamiyat qaratilgan:

Jang maydonini belgilashdagi asosiy tamoyillar:

- jang maydonining geografik ahamiyati: Amir Temur jang maydonini tanlashda hududning geografik sharoitlarini inobatga olgan. U qo'shinlari uchun qulay bo'lgan, dushmanga zarar yetkazadigan yoki uning harakatlarini cheklaydigan joylarni afzal ko'rgan. Masalan, tepaliklar va balandliklarda jang qilish dushman qo'shinlarini kuzatish va ularni nazorat qilish imkonini bergan, daryolar va tog' o'tqazmalaridagi janglardan dushmanning harakatini cheklash uchun foydalanilgan.
- dushman qo'shinlarini aldash: Jang maydonini belgilashda dushmanni qiyin ahvolga tushirish maqsadida turli yolg'on ma'lumotlar tarqatilgan. Bu dushmanning jangga tayyorgarligini susaytirgan yoki uning rejasini buzib yuborgan.
- qo'shinlarning joylashuvi: Jang maydoni tanlangandan so'ng, qo'shinlar aniq reja asosida joylashtirilgan: markaziy qo'shinlar Amir Temurning shaxsiy qo'mondonligidagi qo'shin asosiy kuch sifatida jangning markazida joylashtirilgan, chap va o'ng qanotlardagi qo'shinlar dushmanning oldingi qatorlariga hujum qilish va uning joylashuvini buzish uchun mas'ul bo'lgan, zahira qo'shinlari esa jangning muhim pallalarini hal qilish uchun kuchli qismlar sifatida saqlangan.
- muhandislik ishlari: Jang maydonini belgilashda ko'pincha maxsus tayyorgarlik ishlari o'tkazilgan. Masalan, himoya to'siqlarini yaratish, qazilmalar yoki chuqurliklar tashkil etish, dushman harakatlarini cheklash uchun sun'iy to'siqlar qo'yish.

- ob-havo sharoitini hisobga olish: Jang vaqtidagi ob-havo ahvoli va uning ta'siriga ham alohida e'tibor berilgan. Masalan, Amir Temur shamol yo'nalishidan dushmanga zarar yetkazish uchun foydalangan.

Jang maydonini belgilashda Amir Temur dushman qo'shinlarining birlashgan hujumiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni jang maydonida turli joylarga bo'lib tashlashni maqsad qilgan. Shuningdek, o'z qo'shinlari uchun qulay yo'llar va strategik nuqtalarni ishlatish imkoniyatini saqlab qolgan. Bu bilan jang maydoni dushman qo'shinlarini o'rab olish yoki ularni muayyan joylarda tuzoqqa tushirish uchun moslangan.

Amir Temurning jang maydonini belgilashdagi mahoratli rejalari ko'plab jangovar g'alabalarning asosi bo'lib, uning harbiy strategiyasining o'ziga xos belgisi sifatida tarixda saqlanib qolgan.

Amir Temur jang maydonini belgilashda o'lchashlar va masofalarga katta ahamiyat bergan. Bu uning harbiy strategiyasining muhim jihati bo'lib, u jang qoidalarida har bir elementni hisobga olishga imkon bergan. "Temur tuzuklari"da bu jarayon quyidagicha bayon etilgan:

Jang maydonida o'lchashlar va masofalarni hisoblashdagi jihatlar [12, B.146]:

- Qo'shinlarning joylashuv masofalari: Har bir qo'shin bo'linmasi o'rtasidagi masofa aniq belgilangan. Bu shunga imkon berganki, ular bir-biriga haddan tashqari yaqin yoki uzoq bo'lmaydi, natijada jangdagi harakatlar mukammal muvofiqlashgan. Masalan, o'ng va chap qanotlar orasidagi masofa dushmanning to'g'ridan-to'g'ri hujumini yo'q qilish uchun yetarlicha bo'lishi kerak.

- Katta masofalardagi nazorat: Amir Temur katta janglarda qo'shinlarning markazidan qanotlarga cha bo'lgan masofani aniqlab, har bir qanotning muvofiq harakatlanishini ta'minlash uchun maxsus tizimlar qo'llagan. Masofani nazorat qilish uchun tezkor otliqlardan foydalangan, ular orqali markaz va qanotlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi amalga oshirilgan.

- Hujum va mudofaa masofalari: Temur dushmanga yaqinlashish uchun askarlar orasidagi o'zaro masofalarni aniq hisoblab chiqqan. Bu ularga erkin harakat qilish va o'z joyini saqlab qolish imkonini bergan. Himoya uchun zarur masofalar jangchilarning to'siqlarni qurish yoki qazish imkoniyatini ta'minlagan.

- Qurol-yarog' masofasini hisobga olish: Amir Temur jangda ishlatilgan qurol-yarog'lar (yog'och yoki oqqo'rg'on)ning ta'sir masofasini yaxshi bilib, qo'shinlarni shunga mos ravishda joylashtirgan. Uzoq masofadan otildigan qurollar (kamon, bolta yoki tosho'qlar) uchun alohida saf tuzilgan.

- Dushmangacha bo'lgan masofa: Jang boshlanishidan oldin dushmangacha bo'lgan masofa diqqat bilan baholangan. Bu dushmanning quvvati va harakat usullarini oldindan bilishga imkon bergan. Dushmanga yaqinlashish tezligi va vaqtini to'g'ri hisoblash Temur g'alabalarining asosiy jihatlaridan biri bo'lgan.

- Qo'shinlar o'rtasidagi aloqa masofasi: Qo'shinlar o'rtasidagi tezkor aloqa yo'nalishlari aniqlangan. Bunga yordamchi kurerlar yoki otliq xabarchilardan foydalanilgan. Markaz va qanotlar o'rtasidagi aloqa masofasi jangning rejasiga muvofiq aniq belgilangan.

- O'lchash va masofani amaliy qo'llash:

1. Amir Temurning qo'shinlari jang oldidan harbiy mashqlarda hududni qadamlar bilan o'lchashga o'rgatilgan. Har bir askar masofani sezish qobiliyatiga ega bo'lgan.

2. Tog'lar va pastliklar orasidagi masofalarni aniqlashda esa jang oldidan ayg'oqchilik qo'shinlari yordamida har qanday tabiiy to'siqlar (daryolar, tog'lar yoki chuqurliklar) o'lchangan va ulardan qanday foydalanish aniqlangan.

3. Zaxira qo'shinlari masofasi bilan ishlashda zaxirada turgan qo'shinlarning jangga kirishi uchun zarur bo'lgan vaqt va masofa ham diqqat bilan hisoblab chiqilgan.

Amir Temurning o'lchash va masofalarga bo'lgan e'tibori uning qo'shinlariga dushman ustidan taktik afzallik berishga imkon berdi. Bu g'alabalarning strategik jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishida

hal qiluvchi rol o'ynagan. Uning ushbu uslublari keyingi ko'plab sarkardalar uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Amir Temurning harbiy va boshqaruv tizimida maosh (ulufa) belgilashdagi aniq va adolatli yondashuvi ochib berilgan. Uning maosh belgilash me'yorlari nafaqat harbiy tuzilmalarning samarali ishlashiga, balki umumiy boshqaruvning barqarorligiga ham xizmat qilgan. Bu tizimni xodimlar uchun maosh belgilash bilan bog'lab tahlil qilishda quyidagi muhim jihatlarni ta'kidlash mumkin [12, B.99]:

Amir Temur adolatli me'yorlar asosida maosh belgilashni talab qilgan. Har bir xodimning maoshi uning lavozimi va bajaradigan vazifalariga mutanosib ravishda tayinlangan. Masalan, oddiy sipohiy maoshi mingan otining bahosiga teng qilib belgilangan. Bu ularning shaxsiy vositalariga asoslanib adolatli ko'rsatkichni ta'minlaydi. O'nboshi, yuzboshi va mingboshilarning maoshi ularning qo'l ostidagi askarlarga nisbatan ko'paytirib berilgan. Bunda ularning javobgarligi va mas'uliyati inobatga olingan: "Oddiy sipohiyga, o'z vazifasini o'rnatib bajarishi sharti bilan, maoshi mingan otining bahosi bo'lsin. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayin qilinsin. O'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiylikdan o'n barobar ortiq bo'lsin. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo'lsin. Yana hukm qildimki, sipohiylikdan qaysi biri urush ishlarida xatolikka yo'l qo'ysa, maoshidan o'ndan birga kamaytirsinlar. Yana buyurdimki, o'nboshi yuzboshining tasdiqi bilan, yuzboshi mingboshining tasdiqi bilan, mingboshi amir ul-umaro (amirlar amiri)ning tasdiqi bilan ulufa olsinlar" [12, B.99].

Harakat va mas'uliyat uchun rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni harbiylar faoliyatidagi xatolar maoshdan aniq ulushda kamaytirilgan (masalan, 1/10 qism). Bu xodimlarni o'z vazifalarini aniq va xatosiz bajarishga undagan. Rejalashtirilgan rag'batlantiruvchi tizim orqali xodimlarning mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin: "Yana hukm qildimki, amir ul-umaro o'z haqini devonbegi va vazirlarning tasdiqi bilan olsin. Davlat tomonidan belgilangan butun maoshlarning to'liq ma'lumotlarini devonbegi va vazirlar avval menga bildirsin, so'ngra tanxoh berilsin" [12, B.99].

Har bir lavozimdagi xodim uchun belgilangan maosh miqdori tizimli tarzda ishlab chiqilgan. Masalan, amirlarning maoshi qo'l ostidagilarnikidan 10 barobar ortiq bo'lgan, devonbegi va vazirlarning maoshi amirlarnikidan yana 10 barobar yuqori qilingan, piyoda xizmatchilar va yordamchi xodimlar uchun 100 dan 1000 birlikkacha maosh tayinlangan.

"Temur tuzuklari"da Amir Temurning harbiy tizim va qo'riqlash xizmatini tashkil etishda o'lchovlar va me'yorlarga asoslangan yuqori darajadagi tizimli yondashuvi aks etadi. "Yana amr qildimki, urush paytida o'n ikki amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'n ikki ming qurollangan otliq sipohiy bilan bir kecha-kunduz davomida har qaysilari xonni qo'riqlash uchun hozir bo'lsinlar. Bu o'n ikki ming otliq lashkarni to'rt favjga bo'lib, bir favjini barong'orga, boshqasini javong'orga, bittasini O'rduning oldiga, boshqasini esa O'rduning orqa tarafiga tayinlasinlar. Ushbu favjlar navbatma-navbat O'rdudan yarim farsang uzoqlashib soqchilik qilsinlar. Ushbu to'rt sipohiy favj o'zlari uchun hirovul belgilasinlar, hirovuldan esa qorovullar tayinlansin. Ular bo'lsa ehtiyotkorlik va hushyorlikni qo'ldan bermay, O'rduga xabar yetkazib tursinlar" [12, B.99]. Ushbu matn asosida quyidagi muhim jihatlarni sharhlash mumkin:

- Harbiy tartib va intizomni ta'minlash: Bunda harbiylar (sipohiylikdan tortib yuqori lavozimdagilargacha) devonxona va boshqa rasmiy yig'ilishlarga maxsus liboslar va qurol-aslahalarsiz hozir bo'lmaslikka buyruq berilgan. Bu intizomni saqlash va harbiylar sha'niga xos rasmiylikni ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Kiyim-kechak va qurol-aslahalar – jangchi yoki xizmatchi maqomining ifodasi bo'lib, ularning vazifaga tayyorligini namoyon qilgan.

- qo'riqlash xizmatining o'lchov va miqdorlari: 12 ming qilichlangan askar urush yoki tinchlik vaqtida ham qo'shk va devonxona atrofini to'liq qo'riqlash uchun safarbar qilingan. Bu katta sondagi qo'riqchilar orqali juda kuchli himoya tizimi tashkil etgan. Har kecha ushbu askarlardan ming kishi navbatchilik qilish uchun ajratiladi, ularning boshiga maxsus yuzboshilar tayinlanadi. Bunda nazoratning darajalari juda aniq belgilab berilgan.

- Hududiy himoya va qo‘riqlash tartibi: 12 ming askar to‘rtta katta guruhga bo‘lingan: bir favj qo‘shkning oldida; ikkinchisi orqasida; qolgan ikkitasi yon tomonlarda qo‘riqlash vazifasini bajaradi. Ushbu favjlar yarim farsang (taxminan 3 km) masofada qo‘shk atrofida qo‘riqchilik qiladi. Bu chegara hududida himoya zonalarini tashkil etishni ta‘minlagan.

- Ehtiyotkorlik va xabardorlik tizimi: Har bir favj o‘z himoya nuqtasini belgilab, hirovullar va qorovullar tayinlaydi. Bu qorovullar uzluksiz hushyorlikni saqlab, o‘z vaqtida xabar yetkazib turish vazifasini bajargan. Ushbu tizimda hujum yoki tahdid holatlarida tezkor xabar almashish muhim o‘rin tutgan.

- Javobgarlik va intizom: Agar lashkar ichida o‘g‘irlik yoki boshqa qonunbuzarlik sodir etilsa, qo‘riqlash xizmati mas‘ullari to‘liq javobgarlikka tortiladi. Bu holat qo‘riqchilarning o‘z vazifalariga mas‘uliyat bilan yondashishlarini ta‘minlagan. Bozorda soliq yig‘ish va tartib o‘rnatish ham qo‘riqlash xizmati mas‘ullarga yuklangan, bu ularning salmoqli vakolat va majburiyatlarga egaligini ko‘rsatadi.

- Harbiy qismlarning vazifalari: Lashkarning uchdan biri chegaralarni qo‘riqlashga jalb qilingan, ikkidan biri esa saltanat xizmatida doimiy ravishda hozir bo‘lishlari lozim. Bu qo‘shinning ish jadvali va funksiyalarini samarali taqsimlashga xizmat qilgan.

- Amaliy va strategik ahamiyat: Amir Temurning harbiy tizimida qo‘riqlash xizmati, lashkarning joylashuvi va harakatlaridagi aniqlik hududiy xavfsizlikni ta‘minlash va har qanday xavfni oldindan sezib bartaraf etishga xizmat qilgan. Chegara va qo‘shk atrofidagi qo‘riqlash tizimi, ehtiyot chorolari, shuningdek, javobgarlikning aniq taqsimlanishi hozirgi davrdagi xavfsizlik xizmatlarining strategik asoslarini yaratishda o‘rnak bo‘ladi.

Bu tizimda Amir Temur jangchi askarlar va qo‘riqlash xizmatining ishini miqdoriy va sifatiga qarab mukammal tashkil etgan. Uning yondashuvi harbiy xizmatchilarning mas‘uliyati, intizomi va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, davlatning xavfsizligiga asosiy e‘tibor qaratgan. Bugungi kunda ham bunday tizimli yondashuv juda katta ahamiyat kasb etadi.

Asarning “Mamlakatlarni zabt etish tuzuki”da Amir Temur mamlakatni zabt etishidan oldin albatta to‘g‘ri kengash va tadbir bilan ish tutadi. Shuningdek, xatoga iul quymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qiladi va qo‘llagan tadbiri to‘g‘ri va rost chikqan. Har yer el-ulusining tabiati va xalkdning mizojlarining tabiatiga muvofiq yo‘l tutib, shunga qarab ularga hokim tayinlagan. Uch yuz o‘n uch asil zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni o‘z atrofiga birlashtiradi. Birlik-ittifokdari shunday ediki, hammalari go‘yo bir tandek edilar. Barchalarining maqsadlari, ra‘ylari, so‘zlari va ishlari bitta edi. Bir ishni qilaylik deb qaror qilsalar, tugatmagunlaricha undan qo‘l uzmas edilar. Va nihoyat, bugungi ishni ertaga qoldirmadi va qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadi [12, B.133].

“Temur tuzuklari”dagi jang maydonini tanlash va tayinlashdagi aniq o‘lchashlar va me‘yorlarni belgilashga Amir Temur alohida e‘tibor qaratgan. U har bir jihatga katta ahamiyat berilgan, xususan, harbiy kuchlarning soni, miqdori, yoki jang maydonining tabiatiga. Masalan, jangchi kuchlarining soni va tuzilishi yuzasidan g‘anim lashkari soni 12 ming otliqdan kam bo‘lsa, Amir Temur amir ul-umaro (lashkar sardori)ni tanlaydi. Bu yo‘nalishda, sardorga hamroh bo‘lish uchun aymoq va tumanlardan 12 ming otliq askar tayinlanadi. Har bir yuqori lavozimdagi askarlar (mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi)ning ham harbiy kuchlar bilan birga jangga tayyor bo‘lishi talab qilinadi. Bu harbiy kuchlarning miqdori va uyg‘unligini ta‘minlaydi. Lashkar tuzilishi va harakat tartibi bo‘yicha esa 12 ming otliq askarni to‘qqiz qismga bo‘lish buyrug‘i berilgan: qo‘ldagi favj, barong‘ordagi uch favj, javong‘ordagi uch favj, hirovul va qorovulda bir-bir favj. Bu harbiy kuchlarning barcha tarmoqlariga aniq vazifalar yuklanadi va harakatdagi uyg‘unlikni ta‘minlaydi. Barong‘or va javong‘or bo‘limlari maxsus tuzilishlardan iborat bo‘lib, ularda hirovul, chopovul va shiqovul (himoyachi, kuzatuvchi va zaxiralar) mavjud. Bu strukturalar jangdagi muvofiqlik va muhofaza qilish vazifalarini bajarish uchun zarur.

Amir Temur jang maydonini tanlashdagi to‘rt muhim omilni belgilovchi me‘yorlarga asoslangan:

- suvga uzoq-yaqinlik: Jang maydoni suvga yaqin yoki uzoq bo'lishiga e'tibor beriladi. Bu askarlar uchun suv ta'minoti va manevr qilish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi;
- yerning xavfsizligi: Jang maydoni askarlar uchun xavfsiz bo'lishi shart. Bu harbiy kuchlar uchun zaif nuqtalardan qochish va xavfsiz harakatlanish uchun muhimdir;
- g'anim lashkariga nisbatan yerning baland yoki pastligi: Teparoqqa joylashish — bu lashkarning dushmanga nisbatan strategik ustunlikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Oftobga ro'baro' bo'lmasligi askarlarning ko'rishini osonlashtiradi va ularning jangga tayyorligini oshiradi.
- o'rduga yoki jang maydoniga keng, ochiq joy: Bu yordam berishi uchun lashkarlarga manevr qilish imkoniyatini taqdim etadi, shu bilan birga dushmanning imkoniyatlarini cheklashga yordam beradi.

Lashkarni safga tizish va harakatlarini muvofiqlashtirishdp urushdan bir kun oldin lashkarni safga tizish va tuzukka muvofiq tuzish bo'yicha aniq buyruqlar berilgan [12, B.151]. Bu lashkarning jangdagi tizimli va samarali harakatlarini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Jangga yurish yo'nalishining aniqligi — otlar ko'zlangan yo'nalishga qaratilgan va yo'ldan chap yoki o'ngga burilmasligi belgilangan. Bu lashkarning manevr qilish qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Bu jang maydonini tanlash, askarlarning soni va jangdagi manevrlarni aniq belgilashda yuqori darajada tartib va yagona strategik yondashuvni ko'rsatadi. Ushbu tizim askarlarning samarali harakat qilishlarini ta'minlab, harbiy operatsiyalarning muvaffaqiyatli bo'lishini kafolatlaydi.

Amir Temurning davlat tuzilishida, harbiy va boshqaruv ishida, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda metrik tizimlarning ahamiyati va uning amalga oshirilishining muhim jihatlari tadqiq etib, quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin:

Amir Temurning davlat boshqaruvida va harbiy strategiyalaridagi daqiqlik va aniqlik birinchi navbatda metrologiyaga, ya'ni o'lchash va me'yorlash tizimlariga bog'liq bo'lgan. Amir Temur jang maydonini tanlashda, qurol-aslaha tayyorlashda, askarlarni o'lchashda va hatto davlat xarajatlari va soliq to'lovlari belgilashda aniq me'yorlarni joriy etgan.

Amir Temurning harbiy strategiyasida metrologiyaning ahamiyati har tomonlama ko'rsatiladi. U jang maydonini tanlashda, lashkarning sonini hisoblashda va urushda askarlarning hozir bo'lishi uchun aniq me'yorlar belgilagan. Jangda yoki tinchlikda amalga oshiriladigan barcha harakatlar, jumladan, yo'nalishlar va manevrlar, to'liq va aniq hisob-kitoblarga asoslangan.

Amir Temur davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosatda ham metrologiyaning muhimligini tan olgan. Davlatning soliq siyosatini amalga oshirishda, moliyani tartibga solishda, tovarlar va xizmatlarni baholashda o'zining aniq va unimli o'lchash tizimini joriy etgan. Bu, albatta, iqtisodiy jarayonlarning samarali boshqarilishiga va davlatning barqarorligini ta'minlashga yordam bergan.

Temuriylar davrida savdo va iqtisodiy aloqalarda ham metrologiya muhim rol o'ynagan. Tovarlar va xomashyolarning miqdori va sifatiga tayangan holda, aloqalar o'rtasidagi ishonchni oshirish va soliq to'lovlari, xomashyoning narxini belgilashda me'yorlar qo'llanilgan.

Amir Temur va uning hayratomiz davlat tuzilishining iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan metrik tizimlari nafaqat samaradorlik, balki madaniy taraqqiyot uchun ham muhimdir. Metrologiya, shubhasiz, davlatning mustahkamligi, ijtimoiy adolat va har bir fuqaroning hayotiga bog'liq muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy ishlardagi muvaffaqiyatini, aniq va samarali metrologiya tizimini tatbiq qilishga bog'laydi. Bu tizimlar jang, iqtisodiyot, soliq, savdo va ijtimoiy hayotni yuqori darajada tartibga solishga yordam bergan. Amir Temurning metrologiyaga oid qarorlari o'z zamonidagi davlatning samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynagan va ularning ba'zilari o'sha davrning ilg'or yondashuvlariga to'g'ri kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 21-22 апрел кунлари Қашқадарёнинг Кўкдала туманига ташрифида ўтказилган фаоллар билан учрашувдаги нутқи// <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/21/amir-temur/>
2. <https://lex.uz/uz/docs/2329020>

3. <https://www.lex.uz/docs/276338>
4. <https://lex.uz/uz/docs/397141>
5. <https://lex.uz/docs/10905>
6. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзусидаги халқаро конференция тезислари тўпламига ёзилган сўз боши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996, 4-б
7. «Тузуқларнинг таржималари, турли йиллардаги нашрлари ҳақида, Амир Темур жаҳон тарихида». – Париж, 1996, 119-144-б.
8. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994, 430 б.; «Амир Темурни ёд этиб». – Тошкент, 1996, 367 б. ва бошқа асарлари.
9. Аҳмедов Н.А. Амир Темур: ривоят ва ҳақиқат. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996.; Амир Темур ва темурийлар даври тарихига кириш. А.Бадиров билан ҳамкорликда. – Самарқанд, 1999. 74-б.
10. Бобоев Ҳ.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Камалак, 1996, 71-124-б.
11. Саидов А.Қ., Тошқулов Ж.Т. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ИИВ Академияси нашриёти, 1995.
12. “Темур тузуқлари”. Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ., Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. —Тошкент: «Ўзбекистон», 2012. —184 б.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000